


SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **12,5** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,0** foizga kamaygan.



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 287 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga kamaygan.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini kamayishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 1,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 64,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) kamayganligini, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 108,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,9 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 107,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) ko'payishini ko'rish mumkin.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




1,5 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



4,9 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



33,3 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




11,6 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 414 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 5,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 363 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga yoki 2,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 48 tani tashkil etganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 12 549 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 090 taga yoki 9,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 557 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 660 taga yoki 6,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 469 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 164 taga yoki 10,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 224 tani tashkil etib, ulardan 212 tasi yoki 94,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 27 taga yoki 13,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 foizga kamaygan




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirkmalar




Kichik korxonalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	103	146	182	187	212
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10	8	15	19	26
Sanoat	68	101	114	119	115
Qurilish	5	7	10	12	16
Savdo	11	20	26	23	30
Tashish va saqlash	4	5	4	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	-	2	1	5
Axborot va aloqa	-	1	2	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	1
Boshqa turlar	4	4	9	8	13

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

15


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Sirdaryo viloyati	212	120	92
Guliston sh.	51	26	25
Yangiyer sh.	21	9	12
Shirin sh.	5	5	-
Oqoltin	7	4	3
Boyovut	9	4	5
Sayxunobod	12	8	4
Guliston	9	4	5
Sardoba	10	7	3
Mirzaobod	23	11	12
Sirdaryo	58	40	18
Xovos	7	2	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 58 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 27,4 %), Guliston shahrida 48 ta (24,1 %), Yangiyer shahrida 22 ta (9,9 %), Mirzaobod tumanida 25 ta (11,8 %) hamda Sayxunobod tumanida 12 tani (5,7 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

16




2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 18 343 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (27,1 %), Yangiyer shahri (6,8 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (13,9 %), Sayxunobod (7,6 %), Boyovut (8,1 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (8,7 %), Oqoltin (6,0 %), Xovos (5,6 %), Sardoba (6,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan 1 734 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Guliston shahri (21,4 %), Yangiyer shahri (5,1 %), Shirin shahri (2,5 %), Sirdaryo (13,8 %), Sayxunobod (6,4 %), Boyovut (8,7 %), Guliston (8,5 %), Mirzaobod (7,7 %), Oqoltin (9,3 %), Xovos (4,8 %), Sardoba (11,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 11 557 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (25,0 %), Yangiyer shahri (7,7 %), Shirin shahri (2,4 %), Sirdaryo (15,5 %), Sayxunobod (7,9 %), Boyovut (7,5 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (8,9 %), Oqoltin (6,3 %), Xovos (5,7 %) va Sardoba (6,4 %) tumanlari hissalariga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan 48 ta oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (14,5 %), Yangiyer shahri (6,3 %), Shirin shahri (4,2 %), Sirdaryo (18,8 %), Boyovut (14,5 %), Guliston (22,9 %), Oqoltin (2,1 %) Mirzaobod (16,7 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the website of the Sirdaryo region statistics office. At the top, it features the logo of the Republic of Uzbekistan and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI'. Contact information includes phone numbers (67) 236-70-00 and (67) 236-86-15. The main navigation bar includes 'BOSHQARMA HAQIDA', 'OCHIQ MALUMOTLAR', 'NASHRLAR', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'MIROJJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The 'INTERAKTIV XIZMATLAR' menu is open, showing options like 'KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RSIDA MA'LUMOT'. The main content area shows various statistics for 2022, such as 'YALPI HJUDDIY MAHSULOT 105,7%', 'SANOAT 110,4%', and 'YO'LOVCHI AYLANMASI 103,5%'. Below this, there is a section titled 'Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot' with a search form for STIR codes, a QR code, and an 'Ochish' button.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining www.sirstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (67) 236-86-37